


2019-yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalarini tomonidan 94,7 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi* 107,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

– 7,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 7,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 3,4 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 8,6 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 13,4 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish 4,4 % ga, va shag'al – 2,2 m. ga oshdi. Shu bilan birga, ko'mir qazib olish 18,9 % ga, neft - 7,4 % ga, gaz kondensati - 1,4 % ga, chaqiq tosh - 31,1 % ga pasaygan.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- aprelda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-aprelga nisbatan, %
	Ko'mir, ming t.		
1256,0		1018,5	81,1 ↓
	Neft, ming t.		
249,7		231,2	92,6 ↓
	Tabiiy gaz, mln.kub.m.		
19932,4		20816,2	104,4 ↑
	Gaz kondensati, ming t.		
723,4		713,0	98,6 ↓
	Chaqiq tosh, ming t.		
354,6		244,2	68,9 ↓
	Shag'al, ming t.		
80,1		179,6	2,2 m. ↑

Tabiiy gaz qazib olish, mlrd. kub. m



Ko'mir qazib olish, ming. t



Neft qazib olish (sh.j.gaz kondensati), ming. t




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 73,6 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 77,7 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,2 % ni (2018-yil yanvar-aprel oylarida - 1,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 26,2 % (26,1 %), o'rta-quyi texnologiyali - 37,6 % (33,7 %) va quyi texnologiyali - 35,0 % (38,8 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Jami sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 17,1 % (2018-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 20,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 18,0 % (4,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 13,5 % (3,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 11,5 % (8,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 7,6 % (2,7 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 2,0 m., yengil avtomobillar - 1,5 m., avtomobil dvigatellari - 1,6 m., avtobuslar - 4,1 m., yurguzuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 1,5 m., radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chambaraklari, rul kolonkalari va rul mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 1,5 m. ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari kimyo korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 114,3 %), karbamid (119,8 %), ammoniy sulfat (126,5 %), ammoniy nitrat (119,2 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (127,7 %), gerbitsidlar (107,2 %), kaustik soda (164,4 %), boshqa azotli o'g'itlar va ularning aralashmalari (173,9 %), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (137,4 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- aprelda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-aprelga nisbatan, %
--	----------------------	---	--

Yengil avtomobillar, dona

53219



79614

149,6 ↑

Yuk avtomobillari, dona

856



1719

2,0 m. ↑

Avtobuslar, dona

144



593

4,1 m. ↑

Avtomobil dvigatellari, dona

40780



63762

156,4 ↑

Paxta tolasi, ming t.

448,8



303,1

67,5 ↓


O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.

88,0



74,1

84,2 ↓

2018-yil yanvar- aprelda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- aprelda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-aprelga nisbatan, %
Tamaki mahsulotlari, mln. dona			
3544		3578	101,0 ↑
Avtomobil benzini, ming t.			
378,9		308,7	81,5 ↓
Dizel yoqilg'isi, ming t.			
387,9		341,8	88,1 ↓
Portlandsement, ming t.			
2415,6		2774,7	114,9 ↑
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.			
3752,1		4790,2	127,7 ↑
Traktorlar, dona			
806		164	20,3 ↓



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,9 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,3 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-aprelga nisbatan, %
--	----------------------	--	-------------------------------------

Elektroenergiya, mln.kVt/s

20919,2



22051,8

105,4 ↑

Issiqlik energiyasi, ming Gkal

12116,9



11705,3

96,6 ↓

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 794,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 2,5 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyo – 3,2 martaga, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 1,9 martaga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 36,5 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 50,5 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 74,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-aprelda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar- aprelda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-aprelga nisbatan, %
--	----------------------	---	-------------------------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna

123,2



82,5

67,0



Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, tonna

1041,0



2577,0

2,5 m.



Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm

44,9



67,5


150,5



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 29,6 trln.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 17,1 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 31,2 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va 2018 yil yanvar-aprelga nisbatan o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 67,5 % dan 2019-yilning yanvar-aprel oylarida 69,1 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 7,1 % ni (2018-yil yanvar-aprel oylarida 8,2 %) tashkil etdi.


Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 35,9 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 37,9 % ni tashkil etdi.



Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.

2018 yil
yanvar-aprel




2019 yil
yanvar-aprel



-  Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar
-  Respublikaning boshqa korxonalari

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi - 23,7 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi - 76,2 % ni tashkil etdi.


Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 16,1 %), Toshkent shahri (15,4 %), Navoiy (13,4 %), Andijon (10,3 %), Qashqadaryo (6,6 %) va Farg'ona (6,3 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan %




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Andijon (2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,9 %), Xorazm (112,3 %), Samarqand (112,0 %), Toshkent (109,0 %), Namangan (107,2 %) va Farg'ona (106,4 %) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Andijon (2018-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan 147,7 %), Xorazm (121,7 %), Sirdaryo (113,4 %), Namangan (110,6 %), Farg'ona (109,4 %), Surxondaryo (107,8 %) viloyatlarida va Qoraqolpog'iston Respublikasida (108,7 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Andijon (respublika iste'mol tovarlari hajmida 25,9 %), Toshkent shahar (23,4 %), Toshkent (8,1 %) va Samarqand (7,8 %) viloyatlarida ishlab chiqarildi.


2019-yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha istemol mollarning o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar- aprel oylariga nisbatan %



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy viloyatida (12925,7 ming so'm), Toshkent shahrida (5788,9 ming so'm), Toshkent (5264,7 ming so'm) va Andijon (3182,6 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (2842,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 888,0 ming so'm bo'lgani holda Andijon viloyatida - 2490,8 ming so'mni, Toshkent shahrida - 2751,7 ming so'mni, Navoiy viloyatida - 847,5 ming so'mni, Sirdaryo viloyatida 841,3 ming so'mni, Toshkent viloyatida 827,1 ming so'mni va Xorazm viloyatida – 798,5 ming so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sishi
2018-yil yanvar - aprel oylariga nisbatan %




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 27,7 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 29,2 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Namangan (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 65,5 %), Toshkent shahrida (65,3 %), Jizzax (54,7 %), Surxondaryo (46,9 %), Samarqand (46,4 %), Sirdaryo (39,2 %) va Farg'ona (36,9 %) viloyatlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Navoiy (10,7 %) va Qashqadaryo (16,6 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (18,8 %), Andijon (19,3 %) va Toshkent (21,8 %) viloyatlarida kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Respublikada 63,5 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 14,0 mingtasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 22,1 %) Toshkent shahriga, 7,0 mingtasi (11,1 %) Farg'ona viloyatiga, 6,4 mingtasi (10,1 %) Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 may holatiga)



2019-yil yanvar-aprel oylarida Respublikada 8706 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 51,4 foizi Toshkent shahri, Buxoro, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2019-yil yanvar-aprel)



**Sanoat statistikasi
boshqarmasi**

Tel: (71) 230-80-46